

**PSIXOLOGIK TESTLARNI MAHALLIY MUHITGA MOSLASHTIRISHDA  
DASTURIY TA'MINOTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

**G'ulomqodirov E.A**

*Toshkent davlat texnika universiteti Qo'qon filiali o'qituvchi  
eldorjongulomqodirov@gmail.com*

So'nggi yillarda psixolog tadqiqotchilar faoliyatida tub o'zgarishlari yuz berdi. Zamonaviy komputer texnologiyalari shaxsni diagnostika qilish, psixologik tadqiqot natijalarini hisoblashda keng qo'llanila boshlandi. Psixologik tadqiqotlarda komputer texnologiyalaridan foydalanish uchun SPSS kabi maxsus statistik dasturlar, shaxs xususiyatlarini tashxis qilish uchun dasturiy ta'minot va internet saytlari yaratildi. Ammo psixologik testlarni mahalliy muhitga moslashtirish jarayonini soddalashtirish uchun maxsus dasturiy ta'minotlar yo'q edi. An'anaviy "qog'oz va qalam" usulidan foydalanish tadqiqotchilar uchun sezilarli qiyinchiliklar tug'diradi. Zamonaviy komputer texnologiyalaridan foydalanish esa sifatli va tezkor natijalarini olishga yordam beradi. Testlarning optimallik ko'rsatkichi hisoblangan diskriminatsiya koeffitsiyenti, diskriminatsiya indeksi va murakkablik indeksini dasturiy ta'minot yordamida hisoblash psixologik testlarni moslashtirish jarayonini soddalashtirib, psixologik tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqadi. Psixologik testlardan ishonchli natijalar olishda ularning optimallik ko'rsatkichi muhim ahamiyat kasb etadi. MMPI mini-mult shaklini mahalliy muhitga moslashtirish jarayonida dasturiy ta'minotdan foydalanish imkoniyatlari o'rganildi.

Psixologik testlarning optimalligini aniqlashni avtomatlashtirish uchun O'zbekiston Milliy univetsiteti "Umumiy psixologiya" kafedrasida professor o'qituvchisi A.Rasulov va "Umumiy psixologiya" kafedrasida magistranti Sh.Mamajonovlar hamkorlikda "Infinity" dasturini ishlab chiqishdi. Dastur murakkablik indeksi, diskriminatsiya koeffitsiyenti va diskriminatsiya indeksi, ishonchlilik va validlilik, reprezentativlik ko'rsatkichlarini aniqlashga yordam beradi. Quyida MMPI mini mult shaklining dastur asosida aniqlangan optimallik ko'rsatkichlari va ularning tahlili haqida so'z boradi.

Shaxs so'rovnomalarini optimalligini oshirish bir necha testologik tadbirlarni o'z ichiga olib, testning baholash shkalalaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Qisqartirilgan ko'p omilli shaxs so'rovnomasi to'g'ri va noto'g'ri mulohazalardan iborat bo'lib, bu sinaluvchilarning javoblarini farqlashni talab qiladi.

Diskriminatsiya koeffitsiyenti statistik o'lchov hisoblanib, psixologik testlarda yuqori va past natijaga erishgan sinaluvchilarning qanchalik farqlay olishini baholash uchun qo'llaniladi. Bu test savoli aniqlaydigan xususiyat yoki qobiliyatning yuqori darajasiga ega bo'lgan sinaluvchilar va past darajali shaxslarni qanchalik farqlay olishining o'lchovidir. Psixometrikada diskriminatsiya koeffitsiyenti muhim o'rin tutib, u test savollarining sifatini va testing umumiy sifatini ko'rsatib beradi.

Diskriminatsiyaning yuqori koeffitsiyenti test savoli yuqori va past ko'rsatkichlarni farqlashda samarali ekanligini ko'rsatadi[1]. Testlarning ma'lum muhit uchun moslashtirilgan variantini ishlab chiqishda diskriminatsiya koeffitsiyentidan foydalanilib, u yordamida shaxs xususiyatlari va qobiliyatlarini samaraliroq o'lchash mumkin. Biz o'tkazgan tadqiqot natijalariga ko'ra diskriminatsiya koeffitsiyenti bo'yicha OPTIMAL emas deb topilgan savollar quyidagilar bo'ldi: 1, 2, 3, 28, 37, 41, 42, 45, 71. Tadqiqot natijalar psixologik testlarning optimalligini tekshirishga qaratilgan "Infinity" dasturi yordamida olindi.

1.1-jadval.

**Qisqartirilgan ko'p omilli shaxs so'rovnomasining optimalligini tekshirish**

tartib raqami	irakkablik ti	kriminatsiya ti	riminatsiya	tartib raqami	irakkablik ti	kriminatsiya ti	riminatsiya	tartib raqami	irakkablik ti	kriminatsiya ti	riminatsiya
11	12.05	-0.08	0.21	22	30.72	0.53	0.40	551	50%	0.49	0.45
22	38.55	-0.32	0.04	22	33.73	0.50	0.36	552	60.24	0.39	0.27
33	15.66	-0.12	0.16	22	16.87	-	0.02	553	33.73	0.37	0.22
44	71.08	0.16	0.10	22	51.81	0.41	0.34	554	24.1	0.18	0.07
55	45.78	0.43	0.29	33	79.52	0.30	0.19	555	53.01	0.51	0.39
66	39.76	0.02	0.00	33	51.81	0.35	0.22	556	22.29	0.20	0.18
77	61.45	0.44	0.29	33	71.08	0.29	0.22	557	33.13	0.47	0.33
88	45.18	0.52	0.42	33	41.57	0.52	0.45	558	75.9	0.34	0.17
99	68.07	0.31	0.16	33	28.92	0.48	0.36	559	80.12	0.16	0.13
11	46.39	0.46	0.35	33	12.65	0.13	0.06	660	79.52	0.07	0.07
11	54.22	0.37	0.31	33	66.87	0.48	0.35	661	12.65	0.19	0.04
11	78.31	0.32	0.22	33	19.88	-	0.15	662	59.64	0.30	0.23
11	61.45	0.44	0.36	33	41.57	0.40	0.33	663	73.49	0.34	0.29
11	25.3%	0.19	0.07	33	57.83	0.43	0.34	664	69.88	0.27	0.19
11	63.25	0.32	0.20	40	61.45	0.00	0.05	665	22.29	0.24	0.18

11	59.64	0.34	0.30	44	36.14	-	0.07	666	45.78	0.56	0.51
11	60.24	0.46	0.46	44	30.72	-	0.16	667	31.33	0.35	0.24
11	74.7%	0.34	0.24	44	64.46	0.20	0.25	668	33.13	0.42	0.28
11	34.34	0.51	0.40	44	63.25	0.48	0.45	669	40.36	0.51	0.47
22	25.3%	0.31	0.12	44	37.35	-	0.06	770	36.75	0.46	0.74
22	45.18	0.42	0.33	44	68.67	0.49	0.41	771	88.85	-	0.40
22	54.22	0.38	0.36	44	23.49	0.36	0.16				
22	45.78	0.33	0.29	44	52.41	0.34	0.33				
22	8.43%	0.21	0.10	44	53.61	0.39	0.33				
22	69.88	0.33	0.27	45	62.65	0.18	0.14				

Diskriminatsiya indeksi diskriminatsiya koeffitsiyentiga o'xshaydi, farqi u test savollariga no'g'ri javob bergan past ball to'plaga sinaluvchilar ulushini to'g'ri javob bergan yuqori ball olganlar ulushidan ayirish yo'li bilan hisoblanadi. Test elementining diskriminatsiya indeksi kontrastli guruh metodikasi yordamida hisoblanadi. Bu holda metodikani qo'llashning zaruriy sharti baholash mezoniga ko'ra me'yorga yaqin taqsimotning mavjudligi hisoblanadi. Diskriminatsiya indeksi muammoni "yuqori samarali" va "past mahsuldor" guruhlardan to'g'ri hal qilgan odamlarning nisbati o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi va D bilan belgilanadi. Diskriminatsiyaning yuqori indeksi ushbu savol yuqori va past ball to'plaganlarni samarali ajrata olishini ko'rsatadi, past diskriminatsiya indeksi esa yuqori va past ball to'plaganlarni samarali ajrata olmasligini ko'rsatadi. Diskriminatsiya indeksining ta'siri shundaki, u yuqori va past ball olganlarni farqlashda qaysi savollar samarali ekanligini aniqlashga imkon beradi va yomon bajarilgan topshiriqlarni aniqlashga va umumiy test sifatini yaxshilashga yordam beradi. Diskriminatsiya indeksining o'rtacha ko'rsatkichi 0.3-0.7 gacha bo'lgan oraliqni tashkil etib, test kontekstiga qarab farqlanishi mumkin[2]. Testolog mutaxassislar test savollarini tuzishda uning murakkabligini ta'minlashga alohida e'tibor berishadi. Diskriminatsiya indeksi va koeffitsienti bizga savollarning biror xususiyat va qobiliyatni qanchalik darajada samarali aniqlab berishini ko'rsatadi. Ammo diskriminatsiya indeksini sharhlashda savol qay darajada test shkalasi va uning mazmuniga mos ekanligiga e'tibor qaratish kerak. Tadqiqot natijalariga ko'ra diskriminatsiya indeksi bo'yicha OPTIMAL emas deb topilgan savollar soni 1 ta hisoblanib, faqat 6-savol optimal emas deb topilgan.

Murakkablik koeffitsiyenti (parametri) odatda ma'lum bir savolga to'g'ri javob bergan subyektlar foizining monoton kamayib borayotgan funktsiyasi sifatida

tushuniladi: topshiriqni qanchalik kam subyektlar bajargan bo'lsa, uning qiyinchilik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi[3]. Juda oson va juda qiyin fikrlar avtomatik ravishda ma'lumotga ega bo'lmaydi. Shuning uchun, ko'pgina testlar uchun o'rtacha qiyinchilikdagi savollar OPTIMAL deb hisoblanadi. Juda oson va qiyin savollarni o'zgartirish yoki testdan olib tashlash kerak. Tadqiqot natijalariga ko'ra murakkablik darajasi bo'yicha OPTIMAL emas deb topilgan savollar: 1, 3, 24, 35, 61, 71savollar hisoblanadi.

Dastur yordamida olingan natijalar qo'lda hisoblangan ko'rsatkichlar bilan qiyoslanganda farq topilmadi. Bu psixologik testlarni adaptatsiyasi va modifikatsiyasi jarayoniga zamonaviy texnologiyalarning yanada keng jalb etish istiqbollari yuqori ekanligini ko'rsatadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Гайда В.К., Захаров В.П. Психологическое тестирование: учебное пособие. - Л. : Изд-во ЛГУ, 1982.
2. Клайн П. Справочное руководство по конструированию тестов. Киев, 1994
3. Немов Р. С. Психология: В 3 кн. Кн. 3: Психодиагностика. М.: "ВЛАДОС", 1998.